

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
YO'NALISHLARDA  
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi*

*(2026-yil 10-fevral)*



**Toshkent – 2026**

## MUMTOZ BOLALAR KITOBXONLIGI VA UNING KO‘RINISHLARI

**Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi,**

Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim  
pedagogikasi kafedrası v.b,dotsenti

**Badriddinova Hilola Akromjon qizi**

Oriental universiteti Boshlang‘ich ta’lim  
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolamizda bolalar mumtoz adabiyotining ahamiyati hozirgi yosh avlod salohiyatni oshirish uchun shoirlarimizning oltinga teng beqiyos asrlarining ahamiyati hamda ularning mohiyati haqida bo‘lib. Asarlar mazmunida vatanga sadoqat tarbiya muhabbat kabi g‘oyalar zamini bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlari:** Barkamol avlod, bilim, kitob, ma’naviyat, xalq ertaklari, kitob manbalari, rivoyatlar, pandnoma, nasihatnoma, tarbiya

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – dedi Prezidentimiz.

Har tomonlama barkamol yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish davlatimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biridir. Har bir inson dastlabki tarbiyani, yangi ma’naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o‘zini qanday o‘rin egallashni o‘rganadi. Ma’naviy ozuqa olishning, chin inson bo‘lib yetishishning birdan bir yo‘li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog‘liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma’naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o‘stirib, xotirasini mustahkamlaydi. Bolalar adabiyoti-bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bolalar adabiyoti insoniyatning qadimiy madaniyat qatlamlariga borib taqaladi. Xalq ertaklari, rivoyatlari, maqollari, dostonlari asrlar davomida yosh avlod tarbiyasida beqiyos o‘rin tutib kelgan. Mumtoz bolalar kitobxonligi — bu milliy adabiyotimizning tarixiy taraqqiyoti davomida bolalarga mo‘ljallangan, axloqiy-ma’naviy mazmuni bilan ajralib turuvchi adabiy merosni o‘qish va o‘zlashtirish jarayonidir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori

ham yoshlarning kitobxonlik malakasini yuksak saviyaga ko‘tarish uchun avvalo, kitobxonlik ko‘nikmasini bolalikdan shakllantirish lozimligi, hamda, ularning bo‘lg‘usi ustozlarni aynan oliygohlarda, mutaxassislik kasblarini egallash jarayonida badiiy asar mohiyatini to‘g‘ri ilg‘ashga, adabiy janrlarni idrok eta bilishga e‘tibor qaratish har jihatdan muhimligi oydinlashtirildi. Farzandlarimiz o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. O‘zbek bolalar adabiyoti ham Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “nasihatnoma”, “axloq kitoblari” singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangan bo‘lsa-da, uning shakllanishi ma‘rifatparvarlik – maktab-maorif tizimi islohotlari bir-biriga bog‘liqligi e‘tirof qilinadi. Bolalar adabiyoti tushunchasi avvalo, turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan so‘z san‘atidir. U voqelikni aynan o‘n olti-o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asar namunalarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zbek bolalar adabiyoti XX asrning 20-30-yillarida shakllanib, umumadabiyotning alohida tarmog‘i sifatida maxsus yo‘nalish kasb etdi. Shundan, A.Avloniy, H.H.Niyoziy, Shokir Sulaymon, G‘ayratiy, D.Oppoqova, G‘ulom Zafariy, Elbek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa‘dulla, Hakim Nazir, Po‘lat Mo‘min kabi yozuvchi-shoirlar o‘zbek bolalar she‘riyati va nasrini, dramaturgiyasi hamda publitsistikasini shakl va mazmun, badiiylik va obrazlilik jihatdan barqarorlashuviga katta hissa qo‘shdilar. Bolajonlarga mo‘ljallangan badiiy adabiyot kichkintoylardan tashqari dast avval, san‘at asari sifatida, keyin esa g‘oyadorligi jihatdan hammabop bo‘lishi mumkin ekan. Bunga misol tariqasida, A.Obidjonning “Vatan” she‘ri bugungi yosh avlod tafakkuri, o‘tkir aql-idrokiga monandligi bilan e‘tiborga loyiq :

- Senga bitta savol bor,  
Menga quloq sol, hoy, qush.  
Vayronada yashaysan,  
Noming esa naq Boyqush,  
Ayt-chi, nahot sen boysan?  
- Asl boylik neligin  
Tushunmaysan, chamasi.  
Bu vayrona bo‘lsa ham,  
O‘zirniki hammasi,  
Shuning uchun men boyman!

Shoirning bolalarga xos tushuncha va tasavvurdan foydalanib, asl muddaosini ayta olgani diqqatga sazovor. Boyqushning ko‘rimsizligi, buning ustiga xarobada

yashashi uning nomiga nomunosib ekanligi bolalarni qiziqtirishi tabiiy. Shoir aniq va ko‘rimli timsol – boyqush hamda u yashaydigan vayrona orqali kichik maktab yoshidagi kitobxonlar uchun hali mavhum bo‘lgan tushuncha – vatanparvarlik, o‘ziga bekklik hissini anglatishga erishgan. Tarbiya haqida esa bizning ulug‘ mutafakkir Ibn Sino bundan ming yillar avval yozgan “Axloq haqida risola”sida shunday yozadi: “Tarbiyani bolaning eng yosh paytidan boshlash kerak, zero unga yaxshi xulq odat bo‘lib qolsin”. Bu kabi fikrlar Unsurulmaoliy Kaykovus, Shayx Sa‘diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mumtoz so‘z san’atkorlarining didaktik asarlariga ham singdirilgan. XX asr boshlarida esa Abdulla Avloniy o‘zining pedagogik risolasida tarbiyaning zamoni haqida mulohaza yuritib, shunday yozadi: “Emdi ochiq ma‘lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan” Kichkintoylar uchun yaratilgan asarlar tili grammatik tuzilishi jihatidan umumadabiy til me‘yorlariga to‘la tayangan holda shakllanadi, ya‘ni unda fonetik, leksik va sintaktik qurilishlar adabiy til qoidalariga mos ravishda qo‘llanadi. Biroq mazkur til faqat me‘yoriy nutq tizimi bo‘lib qolmay, balki bolalarning dunyoni idrok etish usuli, ularning sodda, obrazli va hissiy tafakkurini aks ettiruvchi muhim ifodaviy vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Unda voqelik bolalarcha tasavvur asosida jonlantiriladi, predmet va hodisalar ko‘pincha shaxsiylashtiriladi, hayrat, qiziqish va samimiylilik ustuvorlik qiladi. Shuningdek, bunday nutqda mantiqiy murakkablikdan ko‘ra obrazlilik, qisqa va ravon gap qurilishi, takrorlar hamda ohangdorlik muhim o‘rin egallaydi. Shu bois bolalar adabiyoti tili bir tomondan umumtil tizimining tarkibiy qismi bo‘lsa, ikkinchi tomondan bolalar psixologiyasi va tafakkuriga moslashtirilgan o‘ziga xos nutq ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda bolalar adiblarning tilshunoslik mahorati muhim rol o‘ynaydi. E.Vohidovning bolalar uchun yozgan “Olma” she‘ri shunday so‘z jilolanishiga ega:

Men sizlarning  
Olmangiz.  
Xomligimda  
Olmangiz.  
Nortojiga o‘xshab so‘ng  
Voy qornim, deb  
Qolmangiz.

Tilning aniqligi, yorqinligi, yoxud, serqirraligi jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boraveradi. Ijodkorlarning o‘ziga xos tasvir uslubi, ramziy ko‘chimlardan foydalanish mahorati, poetik obrazlarning yangilanishi bilan badiiy so‘z kamalakday

jilolanadi. Shuningdek islohotchi pedagog va bolalar shoiri Abdulla Avloniyning bolalar adabiyotiga qo‘shgan benazir xizmati o‘z darsliklardagi she‘rlari, hikoyalari, matn va masallarining bolalarbopligi bilan asoslanadi. Jumladan, “Ikkinchi muallim”dagi “Maktabga da‘vat” she‘rida bevosita yosh kitobxonga murojaat qilinadi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara  
Yotma deyr barcha o‘g‘il qizlara.  
Nolayi faryod qilib barcha qush:  
Maktabingiz vaqti, deyr sizlara.  
Boshladi har kim o‘z ishin ishlara,  
Siz-da turing, maktabingiz izlara.  
Siz-da kitoblarni oling shavq ila,  
Tez yuguring, ilm yo‘lin gezlara.

She‘rda tong otishi, uyqudan uyg‘onish vaqti yetganligi o‘z ma‘nosidan tashqari, ramziy ma‘no ham tashiydi. Avvalo, erta tong quyoshi shiringina uxlab yotgan kichkintoy o‘g‘il-qizlarni nurlari bilan erkalab uyg‘otarkan, ularni tong qushlaru–chug‘urchuqlar, bolari-yu buzoqlardan andaza olishga, ularning kundalik “mashg‘ulot”lari bor bo‘lgani kabi o‘quvchilar ham kitob-daftarini qo‘lga olib, ilm yo‘lini izlashga borishi lozimligi uqdirilgan. She‘rning zaminida bolalarda ilm olishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish hamda kelajak uchun kerakli shaxs bo‘lib shakllanishga undaydi. A.Avloniy she‘riyatida emas, balki, o‘tgan asr boshlaridagi har bir ziyoli, ijodkor va ma‘rifatparvar adib uchun dolzarb edi. Abdulla Avloniyning she‘rlarida esa aynan maktab yoshidagi kichkintoylar tasavvuri, qiziqishlari, tili va tushunchasi ustuvor. A.Avloniy bolalarga xos samimiy fikrlarini o‘ynoqi satrlarda tasvirlash hamda asarlarida vatanga bo‘lgan sadoqatni uyg‘otishga yordam beradi. A.Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va uni “yo hayot, yo mamot masalasi” deb biladi. Avloniy mavzuga chinakam pedagogik nuqtayi nazardan yondashadi. Vatanga berilgan ta‘rif kichik yoshdagi o‘quvchilar tafakkuriga mos hamda ixcham. Vatan tuprog‘i muqaddas: unda ajdodlarimizning xoki bor, unda kelajak nasllarimizning haqi bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina yaxshi ko‘rmoq mumkin emas, uning istiqboli uchun kuyunish, kurashish, kelgusi avlodlarga to‘la-to‘kis, ozod farovon holda qoldirish hissi risolada teran aks etgan. Abdulla Avloniy ona Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda bo‘lishni ilgari suradi. Yana bir shunday ma‘rifatparvar bolalar shoiri Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) – hisoblanadi. Hamza o‘zining pedagogik faoliyatini 1910-yilda Toshkentda Qashqar mahallasida maktab ochib, bolalarni o‘qitishdan boshlaydi. O‘quvchilarning o‘rganayotgan materialni quruq yod olishi foydasiz ekanligini aytib,

sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga ko‘proq e‘tibor beradi, ona tili darslarini ko‘paytiradi, yangi darsliklar yozadi. Bolalarning o‘quv qo‘llanmalar, ovqat va kiyim-kechak bilan to‘liq ta‘minlanmagani bu xildagi maktablarning ishlashida katta qiyinchiliklar tug‘dirardi. Ammo Hamza “Jamiyati xayriya” tashkil qilib maktabini saqlab qolish uchun kurashadi. Hamza boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan darsliklari hamda she‘rlari bilan o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan. U o‘zi tashkil qilgan yangi usuldagi maktablar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” nomidagi darsliklar yozadi, ulardagi ta‘limiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega she‘r, hikoya, masal hamda maqolotlari esa aynan o‘zbek bolalar adabiyotining boshlanmasi sifatida qimmatli manba bo‘lgan. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, onadiyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bolishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishgaamda teran fikrlashga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilmfanga muhabba‘ini oshiradi. Kitob xalqimizning o‘tmishi, ilg‘or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg‘ularini o‘stirishga yordam beradi. Mustaqilikga erishgan dastlabki kunlardanoq, yoshlarimizni ma‘naviy sog‘lom, barkamol etib tarbiyalash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratilgani ular adabiyotida ham o‘z aksini topa bordi. Bolalar adabiyoti, ushbu vazifani ado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so‘z qudrati bilan hissa qo‘shib kelayotgan iste‘dodli shoir va yozuvchilar ijodi diqqatga loyiq. Binobarin, chorak asrlik bolalar adabiyotida hodisa bo‘larli asarlar maydongan kelgani e‘tirofqa loyiq. Davr uchun etalon bo‘lgan ijodkorlar adabiyotga yangi shakl va mazmun, mavzu va obraz, dolzarb g‘oyalar olib kirgani bilan diqqatga loyiq. Mumtoz bolalar kitobxonligi yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydigan, ularni ilmga, odob-axloqqa, Vatanga sadoqatga yo‘naltiradigan beqiyos boylikdir. Shuning uchun ham o‘qituvchilar dars jarayonida, ota-onalar esa oilaviy tarbiyada bolalarni mumtoz adabiyot bilan tanishtirib borishlari zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Karimova “Bolalar adabiyoti” darslik “Pages print” nashriyoti Toshkeny -2024
2. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va Folklori”O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam g‘armasi nashriyoti Toshkent — 2006
3. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32)
4. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12600\\_2\\_FEEFFC8873F9F3542BC319496671D879482125C2.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12600_2_FEEFFC8873F9F3542BC319496671D879482125C2.pdf)
5. <https://president.uz/oz/lists/view/3373>

79.	<b>Mamadiyurov Jamol Baxodirovich, Toxirova Saida Muzaffar qizi</b>	Raqamli transformatsiya sharoitida interfaol darslarni tashkil etish metodikasi.....	<b>357</b>
80.	<b>Mamadiyurov Jamol Baxodirovich, Rahmonova Gulinavro‘za Umidjon qizi</b>	Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilar tarbiyasini shakllantirish metodikasi.....	<b>362</b>
81.	<b>Jamol MAMADIYOROV, Humora SULTONOVA</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni.....	<b>370</b>
82.	<b>Jamol MAMADIYOROV, Dilafuz G‘ULOMOVA</b>	Boshlang‘ich ta‘limda raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish metodikasi.....	<b>377</b>
83.	<b>Jamol MAMADIYOROV, Xolida Xayitboyeva</b>	Boshlang‘ich sinflarda sun‘iy intellekt elementlari asosida o‘qitishni tashkil etish metodikasi.....	<b>384</b>
84.	<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Omadjonova Gulshoda Aqljon qizi</b>	Bola shaxsini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning psixologik roli.....	<b>391</b>
85.	<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida</b>	Kasbiy pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy asoslari.....	<b>394</b>
86.	<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Badriddinova Hilola Akromjon qizi</b>	Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari.....	<b>397</b>
87.	<b>Abdumannatov Abdumajid, Aliyurova Mehribon</b>	Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayorlashning pedagogik shart- sharoitlari.....	<b>402</b>
88.	<b>Abdurazzoqov O‘ktam Abduqayumovich, Muhammadiyah Lobar Baxodir qizi</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy tarbiyasida oila muhitining o‘rni.....	<b>406</b>
89.	<b>Abdurazzoqov O‘ktam Abduqayumovich, Yuldashova Ominaxon Nurmuratovna</b>	O‘quvchilarni ijodiy fikirlashga o‘rgatishda didaktik o‘yinlarning imkoniyatlari.....	<b>410</b>